“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=388

2026-yil
9-son
sentabr
ISSN 3093-8546



Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar huquqlarini ta’minlashga doir milliy qonunchilikni takomillashtirish masalalari

Ahror Turdibekov,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mustaqil izlanuvchisi
e-mail: turdibekovahror99@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar huquqlarini ta’minlashga doir milliy qonunchilikni takomillashtirishning huquqiy masalalari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar huquqlarini ta’minlovchi bir qancha qonunchilik hujjatlari tahlil qilinadi. O‘zbekiston Respublikasida yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar huquqlarini ta’minlash va himoya qilishni takomillashtirish yuzasidannazariy va amaliy takliflar beriladi.

Калит сўзлар. yetim bolalar; ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar; bola huquqlari; xalqaro-huquqiy hujjatlar; vasiylik; farzandlikka olish.

Аннотация. В статье анализируются правовые вопросы совершенствования национального законодательства по обеспечению прав детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей, а также ряд законодательных актов Республики Узбекистан, обеспечивающих права детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей. В статье излагаются теоретические и практические предложения по совершенствованию обеспечения и защиты прав детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей, в Республике Узбекистан.

Ключевые слова. дети-сироты; дети, оставшиеся без попечения родителей; права детей; международно-правовые акты; опека; усыновление.

Annotation. This article analyzes the legal issues of improving national legislation on ensuring the rights of orphans and children deprived of parental care, as well as a number of legislative acts in the Republic of Uzbekistan ensuring the rights of orphans and children deprived of parental care. Theoretical and practical proposals are made to improve the provision and protection of the rights of orphans and children deprived of parental care in the Republic of Uzbekistan.

Keywords. orphans; children deprived of parental care; children's rights; international legal instruments; guardianship; adoption.

Oʻzbekistonda yetim va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalar huquqlarini taʻminlovchi bir qancha qonunchilik hujjatlari mavjud boʻlib, ularning vazifasi, yetim va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarning huquqlarini himoya qilishdan iborat.

Hozirgi kunda yetim va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini har tomonlama himoya qilishga qaratilgan yagona xalqaro-huquqiy hujjat mavjud emas. Shu bilan birga, bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator muhim xalqaro hujjatlar mavjud. Ular orasida “Bola huquqlari toʻgʻrisida”gi konvensiya va uning ikkita fakultativ protokoli – “Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyaga bolalarning qurolli mojarolarga jalb qilinishi toʻgʻrisida”gi fakultativ protokol hamda “Bola huquqlari toʻgʻrisidagi konvensiyaga bolalar savdosi, bola fohishabozligi va bola pornografiyasi toʻgʻrisida”gi fakultativ protokol alohida ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga oid boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlar ham mavjud.

“Bola huquqlari toʻgʻrisida”gi konvensiyaga “Yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish” deb nomlangan qoʻshimcha protokol qabul qilish zarurati mavjud. Ushbu qoʻshimcha protokol xalqaro miqyosda aynan yetim va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratiladi.

Bundan tashqari, bola huquqlarini himoya qiluvchi xalqaro-huquqiy hujjatlar hozirda tarqoq holda boʻlib, ularni birlashtirish lozim. Shu sababli, bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xalqaro hujjatlarni yagona “Bola huquqlari boʻyicha Bill”ga birlashtirish taklifi ilgari surilmoqda. Ushbu taklifning maqsadi bolalar huquqlarini himoya qilish boʻyicha xalqaro-huquqiy hujjatlarni takomillashtirishdir.

Yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalar huquqlarini himoya qilishga bagʻishlangan ilmiy asarlar, darslik va monografiyalar juda kam. Borlari ham asosan umumiy bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Shu sababli, yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalar huquqlarini himoya qilishga bagʻishlangan tadqiqot ishlarini koʻpaytirish, oʻquv qoʻllanmalari va darsliklar yaratilishi ushbu sohada ilmiy salohiyatning oshishiga xizmat qiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-oktabrdagi 656-sonli qarori bilan tasdiqlangan, “Yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni uy-joy bilan taʻminlash tartibi toʻgʻrisida”gi nizomda [1], yetim va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarga quyidagicha taʻriflar berilgan:

- yetim bola – otasi ham, onasi ham vafot etgan yoki ular sud qaroriga asosan vafot etgan deb e'lon qilingan bola;

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

- ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola – ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi, bedarak yo‘qolgan yoki muomalaga layoqatsiz deb topilganligi, bolani tarbiyalashdan yoki uning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo‘yin tovlaganligi, shu jumladan, uzrsiz sabablarga ko‘ra o‘z bolasini tug‘ruqxona yoki boshqa davolash muassasasidan, tarbiya, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasi va shunga o‘xshash boshqa muassasalardan olishdan bosh tortganligi, tashlab (qoldirib) ketilgan yoki topib olinganligi sababli ota-onasi noma'lum bo‘lgan, yolg‘iz (ota) ona vafot etgan ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola”.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan qonun osti hujjatlar, jumladan, Vazirlar Mahkamasi qarori mavjud. Ushbu hujjatlarning samaradorligini oshirish va kengroq imtiyozlar berish maqsadida “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunni (qonun loyihasi ilova qilinadi) qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Bolalarni ijtimoiy himoya qilishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari hozirda tarqoq holda bo‘lib, bu huquqni qo‘llashda ko‘plab noqulayliklarga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bola huquqlariga oid barcha hujjatlarni yagona “Bolalar kodeksi”ga birlashtirish taklif etilmoqda. Ushbu takliflar qonunchilikka berilgan takliflardir.

Hozirda yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni farzandlikka berish amaliyoti fuqarolik ishlari bo‘yicha sudyalar tomonidan amalga oshirilmoqda. Biroq, rivojlangan davlatlarda, xususan, Yevropa Kengashiga a‘zo bo‘lgan Germaniyada, vasiylik sudlari faoliyat ko‘rsatadi. Bu sudlarda sudyalar bolalar bilan ishlash bo‘yicha maxsus malaka oshiradilar. Shu sababli, amaliy taklif sifatida, O‘zbekiston Respublikasida Fuqarolik sudlari asosida vasiylik sudlarini tashkil etish etishni, ushbu sudyalarning bolalar bilan ishlash samaradorligini oshirish uchun Sudyalar Oliy maktabida maxsus o‘quv kurslarini tashkil qilishni tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalari tahlili

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli qarorining 3-bandiga ko‘ra, ko‘ra, Milliy gvardiya markaziy devoni tuzilmasida o‘quv-tarbiya muassasalarida yoshlarning ta‘lim va tarbiya olish jarayonlarini hamda ularning bo‘sh vaqtini samarali tashkil etishga mas‘ul Milliy gvardiya qo‘mondonining o‘rinbosari lavozimi joriy etildi, Jamoat xavfsizligi universitetida “Harbiy vatanparvarlik, ma‘naviy-ma‘rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash” kafedrasi tashkil etildi, oilaviy bolalar uylari va Bolalar uylariga hamda vasiylikka, homiylikka yoki oilaga tarbiyaga olingan (patronat) yetim bolalarga (yigirma besh yoshga to‘lmagan) Milliy gvardiyaning

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

harbiy xizmatchi va xodimlari biriktirildi.

Qarorning 6-bandiga koʻra, 2022-yil 1-yanvarga qadar Jamoat xavfsizligi universitetida oʻquv-tarbiya muassasalari tarbiyachilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashni yoʻlga qoʻyildi [2].

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 17-yanvardagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan “Mehr daftari” tizimini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 26-sonli qaroriga muvofiq, “Mehr daftari” joriy qilindi. Ushbu “Mehr daftari”ga kirgan yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni har tomonlama, ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash nazarda tutildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 16-avgustdagi “Oilaviy bolalar uylari toʻgʻrisidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 451-sonli qarori bilan tasdiqlangan, “Oilaviy bolalar uylari toʻgʻrisida”gi nizomga muvofiq, oilaviy bolalar uylarini yuridik shaxs maqomisiz tashkil etish, yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarni ushbu uylarga berish tartibi belgilandi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyunda qabul qilingan, “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam koʻrsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yoʻlga qoʻyish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-82-sonli farmoniga asosan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Ijtimoiy himoya milliy agentligi (keyingi oʻrinlarda – Agentlik), shuningdek, uning Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar boshqarmalari hamda tuman (shahar)larda “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari tashkil etildi, ushbu agentlikning asosiy vazifasi etib, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini qoʻllab-quvvatlash belgilandi [3].

“Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Ijtimoiy himoya davlat jamgʻarmasi mablagʻlarining xarajatlari yoʻnalishlari” deb nomlangan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmonining 4-ilovasida belgilanishicha, 2024-yil 1-yanvardan boshlab, yetim va chin yetim bolalarni uy-joy bilan taʻminlash; “Mehr daftari”ga kiritilgan yetim va ota-ona qaramogʻisiz qolgan bolalarga yordam koʻrsatish; yetim va chin yetimlarni oziq-ovqat, kiyim-kechak va sanitariya-gigiena vositalari bilan taʻminlash; yetim va chin yetim bolalarning sogʻligini saqlash, salomatligini tiklash, ularni hayotga tayyorlash, taʻlim berish, kasb-hunarga yoʻnaltirish va ishga joylashtirish tadbirlarini tashkil etish; oilalarda (homiylikka olingan) tarbiyalanayotgan har bir yetim bolalar va ota-ona qaramogʻidan mahrum boʻlgan bolalarning ijtimoiy himoyasini tashkil etish; 2024-yil 1-iyuldan boshlab: uy-joyga muhtoj, ota-onasidan yoki ulardan biridan mahrum boʻlgan voyaga yetgan qizlar, shuningdek yolgʻiz ona, yolgʻiz ota yoki oʻzgalar qaramogʻida boʻlgan chin yetimlarni uy-joy bilan taʻminlash; ijtimoiy himoya milliy agentligiga oʻtkazildi [4].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-martdagi “Mahallabay ishlashga mas‘ul bo‘lgan shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali ta‘minlash hamda “mahalla yettiligi” faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 137-sonli qaroriga muvofiq, aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimi takomillashtirilib, mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi, mahalladagi yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, davlat soliq inspektori va ijtimoiy xizmat xodimlarining hamkorlikdagi faoliyati yo‘lga qo‘yildi hamda ularning vazifalari belgilab berildi. Shundan kelib chiqib, har bir mahalla fuqarolar yig‘ini huzurida mahalla raisi rahbarligida “Mahalla yettiligi” tashkil qilindi. Ushbu mahalla yettiligining asosiy vazifasi aholi bilan manzilli ishlash kiradi [5].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni asosida mahalla yettiligi tashkil etilgan bo‘lib, unda ijtimoiy xodim lavozimi joriy qilinib, uning vazifasi etib, og‘ir ahvolga tushib qolgan va og‘ir ahvolga tushib qolish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslar va oilalarni aniqlash, ularning ehtiyojlarini tushunish va yordam ko‘rsatish uchun kompleks yondashuv asosida professional ijtimoiy xizmat ko‘rsatish va yordamlarni tashkil etish belgilandi. Bu naqadar, davlatimiz tomonidan yoshlarga, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga e‘tibor berilganligini namoyish etadi [6].

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bola huquqlari, shu jumladan, yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha bir qator tashkilotlar va dasturlar mavjud bo‘lib, ular bola huquqlariga oid xalqaro shartnomalar, konvensiyalar va deklaratsiyalarning amal qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiradi, a‘zo davlatlarning bola huquqlari ta‘minlanganlik bo‘yicha davriy hisobotlari va shikoyatlarini ko‘rib chiqib, tegishli choralarni amalga oshiradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 25-oktabrdagi 656-son qarori bilan tasdiqlangan “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlash tartibi to‘g‘risida”gi NIZOM

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli qarorining 3-6-bandlari, Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son; 10.08.2022-y., 09/22/438/0726-son), www.lex.uz

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyunda qabul qilingan, “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

hamda uning samarali nazorat tizimini yoʻlga qoʻyish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-82-sonli farmoni (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.06.2023-y., 06/23/82/0327-son; 29.12.2023-y., 06/23/216/1008-son; 10.05.2024-y., 06/24/75/0335-son),www.lex.uz

4. “Ijtimoiy himoya milliy agentligi huzuridagi Ijtimoiy himoya davlat jamgʻarmasi mablagʻlarining xarajatlari yoʻnalishlari” deb nomlangan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PF-82-son Farmoniga 4-ilovasi, (Qonunchilik maʻlumotlari milliy bazasi, 05.06.2023-y., 06/23/82/0327-son; 29.12.2023-y., 06/23/216/1008-son; 10.05.2024-y., 06/24/75/0335-son),www.lex.uz

5. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-martdagi “Mahallabay ishlashga masʻul boʻlgan shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali taʻminlash hamda “mahalla yettiligi” faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 137-sonli qarori (Qonunchilik maʻlumotlari milliy bazasi, 16.03.2024-y., 09/24/137/0220-son), www.lex.uz

6. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 15-martdagi “Mahallabay ishlashga masʻul boʻlgan shaxslar faoliyatini va hamkorligini samarali taʻminlash hamda “mahalla yettiligi” faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 137-sonli qarori (Qonunchilik maʻlumotlari milliy bazasi, 16.03.2024-y., 09/24/137/0220-son), www.lex.uz